

MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODI

Ibodullayeva Aziza Furqat qizi
Toshkent Davlat Transport Universiteti
“Iqtisodiyot” fakulteti 1-bosqich talabasi
[*ibodullayevaaziza14@gmail.com*](mailto:ibodullayevaaziza14@gmail.com)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati xususida olib borgan ilmiy tadqiqotlari ham adabiyotshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi

Kalit soʻzlar: Maqsud Shayxzoda, "Bobur ruboiyning ustasi bo'ldi", "Boburnoma"

Maqsud Shayxzodaning Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyati xususida olib borgan ilmiy tadqiqotlari ham adabiyotshunoslikda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri, atoqli shoir va davlat arbobidir. Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda, u "kurashchan ruh", - ya'ni Bobur yuksak muvaffaqiyatsizliklarning mayda muvaffaqiyatlardan ko'ra naqadar oliy ekanini anglagan va hayotning mashaqqatli onlarida ham kurash irodasidan qaytmagan shaxs edi.

Maqsud Shayxzoda Boburning mashaqqatli hayot yo'li haqida to'xtalar ekan, uning ijodi ustida ham alohida tadqiqotlar olib boradi. Xususan, Bobur Mirzo adib va shoir bo'lish jihatidan o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rin tutishi, uning bizga ma'lum asarlari: 1) "Boburnoma"; 2) Turkiston va Afg'onistonda yozgan yirik she'rlar devon i; 3) Masnaviy tarzida yozilgan "Mubayyin" asari; 4) Ubaydullaxo'janing "Volidiya" nomli asarining nazm bilan tarjimasini; 5) "Mufassal"; 6) "Xatti Boburiy" asarlarini sanab o'tib, shoirning "Boburnoma" asariga alohida to'xtaladi: "Bobur Mirzoning asarlari o'rtasida

"Boburnoma" mustasno ahamiyatga egadir. Bu asarni uning shoh asarni desak bo'ladi.

Haqiqatan ham, "Boburnoma" o'zbek nasrining klassik namunasi. U shoh asar bo'lganligi uchun ham bir necha tillarga tarjima qilingan va ko'pchilik sharqshunos olimlarning diqqatini o'ziga tortgan. Boburning 1 irika sohasida ham xizmatlari beqiyos bo'lgan. Maqsud Shayxzoda ta'biri bilan aytganda, "Bobur ruboiyning ustasi bo'ldi". O'rni kelganda shuni ham aytish kerakki, o'zbek mumtoz adabiyotida hech kim Navoiydan keyin Boburdek go'zal va o'qimishli, badiiy jihatdan yuksak va o'tkir mushohadali ruboiylar yozgan emas

Bobur lirikasi bilan tanishar ekanmiz, uning mavzu jihatidan boy va xilma-xil ekanligining guvohi bo'lamiz. Bu haqda Maqsud Shayxzoda shunday deydi: "Bobur poeziyasi hamma narsadan avval zo'r samimiyat bilan kuylangan poeziyadir. U turmushdagi yutuqlarini katta sevinish bilan kuylagani holda, mag'lubiyatva xatolarni ham uyalmasdan iqrор qiladi va bularni yumshoq alamlar bilan munglaydi. Quyidagi ruboiy Bobur hayotida va binobarin uning qalbida birbiriga qarama-qarshi voqealar va ruhiy kechinmalarning yuz berganini ko'rsatadi:

Hijron g'amidin zaif jonim so'ldi,
G'urbat alami birla ichim qon to'ldi.
Yuz shukurki, muncha yilgi g'am birla alam,
Rohat bila ishratg'a mubaddal bo'ldi

Bobur o'zining lirik she'rlari bilan o'zbek mumtoz she'riyatini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi, jahon adabiyoti xazinasini o'lmas durdonalar bilan boyitdi.

Umuman, Maqsud Shayxzodaning Bobur haqidagi maqolasida Bobur ijodi juda keng masalalar va keng materiallarni o'z ichiga olishi, Boburning merosi mufassal va mukammal tekshirishga haqli ekanligi aytiladi. Olim shoir yashagan davr bilan bizni tarixning besh yuz yillik olis masofa ajratib tursa-da, shoirning nomi xalqimiz qalbidan munosib o'rin olganligini to'g'ri e'tirof etadi.

Maqsud Shayxzoda chin ma'noda serqirra ijod sohibi, chunki u katta ijod yo'lini bosib o'tdi. Buyuk adib o'z izlanishlarida yuksak samaralarga erishgan va targ'ibotchi va muallim adabiyotimiz tarixida shoir, olim, dramaturg, publisist, sifatida o'chmas iz qoldirgan insonlardan biridir.